



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	KORXONALAR MOLIYAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Bobomurotova Manzura Panji qizi

TDIU "Soliq va soliqlarga tortish" kafedrasasi assistenti, PhD
bobomurotovamanzura7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq undirishning muhim jihatlari keltirilgan. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning zarurligi va ahamiyati tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, progressiv va proporsional soliqlarning adolatli taqsimotga ta'siri hamda investitsion daromadlarga nisbatan soliqlarning o'ri muhokama qilingan. O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirishda jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliqlarning asosiy funksiyalari asoslangan. Maqolada daromad solig'i yig'ish mexanizmlarining samaradorligi va adolatlilik darajasi iqtisodiy barqarorlik va byudjetga tushumlar nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslar daromad solig'i, progressiv soliq stavkasini, soliq tizimi, soliq imtiyozlari va chegirmalar, soliq deklaratsiyasi, soliq siyosati, byudjet daromadlari, O'zbekiston soliq islohoti.

Abstract: This article presents important aspects of collecting taxes on personal income. The necessity and importance of personal income taxation are analyzed, and their socio-economic impact is highlighted. The impact of progressive and proportional taxes on fair distribution and the role of taxes on investment income are also discussed. The main functions of taxes collected on personal income are based on improving the tax system of Uzbekistan. The article analyzes the effectiveness and fairness of income tax collection mechanisms from the perspective of economic stability and budget revenues.

Keywords: personal income tax, progressive tax rate, tax system, tax benefits and deductions, tax declaration, tax policy, budget revenues, tax reform of Uzbekistan.

Абстрактный: В данной статье представлены важные аспекты сбора налогов с доходов физических лиц. Анализируется необходимость и важность подоходного налогообложения, а также освещается его социально-экономическое воздействие. Рассматривается также влияние прогрессивных и пропорциональных налогов на справедливое распределение и роль налогов на инвестиционный доход. Основные функции налогов, собираемых с доходов физических лиц, основаны на совершенствовании налоговой системы Узбекистана. В статье анализируется эффективность и справедливость механизмов сбора подоходного налога с точки зрения экономической стабильности и бюджетных поступлений.

Ключевые слова: Подоходный налог с физических лиц, прогрессивная налоговая ставка, налоговая система, налоговые льготы и вычеты, налоговая декларация, налоговая политика, бюджетные доходы, налоговая реформа Узбекистана.

Kirish (Введение/Introduction).

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon, davlat byudjetini shakllantirishda asosiy omil bo'lib, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Soliqqa tortishning samarali usullari va shakllari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va islohotlarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Soliqqa tortish tizimining tartibli va adolatli tashkil etilishi, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va soliq to'lash madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning samarali usullari va tamoyillarini qo'llash, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Soliqqa tortishning samarali usullari va shakllari, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda, soliqqa tortishning asosiy tamoyillari - odillik, shaffoflik, samaradorlik va barqarorlik, muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Bugungi kunda yetakchi iqtisodiy adabiyotlarimizda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi, soliq stavkalari, davlat byudjetida ulushi bilan bog'liq tushunchalar ko'p uchramoqda. Ushbu tushunchalarning nazariy asoslari, mohiyati, turlari va roli mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida u yoki bu jihatdan o'rganilgan.

Xususan, jahon miqosida tan olingan iqtisodchi olimlardan Martin Feldshteyn jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yuqori stavkalari kapitalning chetga chiqishiga va iqtisodiyotga yetarlicha sarmoya kiritilmasligiga olib kelishi hamda uning byudjet daromadlari manbai sifatida rolini ilmiy asosda yoritib beradi deb aytib o'tgan [1].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda soliq tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Professor N.Haydarovning "Soliqlar va soliqqa tortish masalalari" deb nomlangan kitobida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni ikki turga ajratadi. Uning fikricha, jismoniy shaxslarning ayrim daromadlarini soliqqa tortilishi mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir etishini ta'kidlaydi [2].

Professor Sh.U. Qiyosovning "Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari" nomli monografiyasida jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq nafaqat jismoniy shaxslardan olinadigan asosiy soliq turlaridan biri, balki soliq orqali tartibga solish amaliyotini qo'llashning o'ziga xos sohasidir va bu orqali joriy etish imkoniyatlari ilmiy asosda bayon etilgan [3]. Shuningdek professor A.Bozorov deklaratsiya orqali daromadlarni shaffoflashtirish jismoniy shaxslarning daromadlari va ularning manbalarini to'liq aniqlash soliq tizimida shaffoflikni ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi deb ta'kidlagan [4].

Fransuz iqtisodchisi Tomas Piketti esa soliq siyosati jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida ularning daromadlari va boyliklarini hisobga olgan holda soliq yukini adolatli taqsimlashga qaratilgan bo'lishi kerak deb aytgan [5]. Shuningdek, Berkli universiteti professori Emmanuel Saez jismoniy shaxslarni soliqqa tortish samaradorligini tahlil qilishda nafaqat soliqlarni undirish jarayoni, balki ularning mehnat faoliyati, investitsiyalar va iste'molga ko'rsatadigan ta'siri ham inobatga olinishi lozimligini [6] va AQSh iqtisodchisi, akademik Robert Kerroll jismoniy shaxslarga samarali soliq solish barqaror iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy adolatni ta'minlashning asosiy elementi hisoblanishini keltirib o'tgan [7].

Yuqorida qayd etilgan manbalar jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq tizimlarini ilmiy va amaliyot jihatidan

chuqur tahlil qilishda asosiy nazariy va statistik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali jismoniy shaxslarni soliqqa tortishdagi muammolarni tahlil qilish, hamda O'zbekiston soliq amaliyoti uchun munosib xulosalar chiqarish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. (Methods/Методы).

Tadqiqot metodologiyasida iqtisodiy, qiyosiy, tahlil qilish va tanlama kuzatish, statistik hamda ko'p omilli ekonometrik tahlil usullari, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash kabi usullardan keng foydalanilgan va uning nazariy asoslaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar davlat daromadlarining asosiy manbalaridan biridir. Bunday soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat xarajatlari, jumladan, davlat xizmatlari, ijtimoiy faollarni rag'batlantirish va jamiyatning boshqa ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun moliyaviy asosni ta'minlashdan iborat.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi, daromadlarni taqsimlashga ta'sir qiladi, iqtisodiy faollarni rag'batlantiradi, davlat dasturlarini moliyalashtirishni ta'minlaydi, fuqarolarning xatti-harakatlarini tartibga soladi.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq evolyutsiyasi yillar davomida turli mamlakatlarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu soliq qadimiy ildizlarga ega bo'lsa-da, zamonaviy soliq tizimi XIX asrda shakllana boshladi. O'shanda ko'plab mamlakatlar turli xil davlat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun daromad solig'ini joriy qila boshladi.

XX asrda ko'plab mamlakatlar yuqori daromad darajalariga nisbatan yuqori stavkalar qo'llanilgan holda progressiv soliqqa tortishga o'tdi. Bu, odatda, ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan adolatlidir va hukumat maqsadlari uchun ko'proq mablag' to'plash imkonini beradi.

Vaqt o'tishi bilan soliq tizimiga jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini kamaytirish imkonini beruvchi turli imtiyoz va chegirmalar joriy etildi. Bu bolalar uchun ajratmalar, ta'lim, sog'liqni saqlash, xayriya badallari va boshqa xarajatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ko'pgina mamlakatlarda daromad solig'i kapital daromadi (masalan, foizlar, dividendlar, kapital o'sishi) va mehnat daromadlarini (ish haqi, xizmatlar uchun to'lovlar va hokazo) o'z ichiga oladi. Ushbu ikki turdagi daromadlar turli xil stavkalar bo'lishi yoki turli soliq imtiyozlariga ega bo'lishi mumkin.

Texnologiya va globallashtirish jarayonida internet orqali olingan daromadlarni soliqqa tortish hamda chet elda ishlaydigan yoki investitsiya qiluvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini xalqaro soliqqa tortish kabi muammolar yangi qiyinchiliklar yaratmoqda. Ko'plab mamlakatlar soliq yig'ishni soddalashtirish, ma'muriy yuklarni kamaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida soliq tizimini doimiy ravishda isloh qiladi. Bu o'zgarishlar soliq stavkalarini o'zgartirish, imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish va soliq to'lash tartibini soddalashtirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqqa tortish tizimining umumiy tendensiyasi davlat ehtiyojlari va soliq to'lovchilar manfaatlarini muvozanatlashiradigan adolatli, shaffof va samarali tizimga erishishdan iboratdir.

1992-1996-yillarda O'zbekistonda iqtisodiy tizim va soliq tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotga o'tish davrida jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solish tartibi aniq emas va tarqoq holda edi.

1990-yillarning boshlarida O'zbekistonda soliq tizimini bozor iqtisodiyotga moslashtirish yo'nalishida islohotlar olib borildi. Shaxsiy daromad solig'ini joriy etish shu jarayonning bir qismi bo'lgan.

1997-2007-yillarda O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar tizimi bir necha turdagi soliq va yig'implarni o'z ichiga olgan.

Bu davr uchun soliqlarning asosiy jihatlari quyidagicha edi:

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq – fuqarolarning ish haqi, tadbirkorlik faoliyati, ijara to'lovlari va boshqa manbalardan tushgan daromadlaridan soliq undiriladi. To'lov stavkalari va undirish tartibi ma'lum bir davrga qarab o'zgarib turar edi.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq undirish davlat xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy maqsadlaridan biridir. Hukumatlar jismoniy shaxslardan soliq undirish orqali turli davlat dasturlari, xizmatlar va infratuzilmani moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni yig'adi. Bu mablag'lar davlat faoliyatini ta'minlashga yo'naltiriladi, shu jumladan, mudofaa ehtiyojlari, ijtimoiy dasturlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma, huquq-tartibot va boshqa sohalarni

moliyalashtirishga sarflanadi. Natijada bu soliqlar davlatning umumiy iqtisodiy barqarorligini va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. [8]


Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiyot, moliya va soliq sohasidagi ko'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu olimlarning ilmiy tadqiqotlari bilan tanishish natijalariga ko'ra quyidagi nazariy tahlillarni keltirish mumkin:

1-jadval

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish jarayonlarini samarali tashkil etishning muhim jihatlari¹

	Iqtisodchi-olimlar	Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish jarayonlarini samarali tashkil etish borasidagi qarashlar
1.	Martin Feldshteyn – amerikalik iqtisodchi.	“Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yuqori stavkalari kapitalning chetga chiqishiga va iqtisodiyotga yetarlicha sarmoya kiritilmasligiga olib kelishi mumkin”.
2.	Emmanuel Saez – Berkli universiteti professori, iqtisod fanlari doktori.	“Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish samaradorligini tahlil qilishda nafaqat soliqlarni undirish jarayoni, balki ularning mehnat faoliyati, investitsiyalar va iste'molga ko'rsatadigan ta'siri ham inobatga olinishi lozim”.
3.	Tomas Piketti – fransuz iqtisodchisi.	“Soliq siyosati jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida ularning daromadlari va boyliklarini hisobga olgan holda soliq yukni adolatli taqsimlashga qaratilgan bo'lishi kerak”.
4.	Robert Kerroll (Robert Carroll) – AQSh iqtisodchisi, akademik.	“Jismoniy shaxslarga samarali soliq solish barqaror iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy adolatni ta'minlashning asosiy elementi hisoblanadi”.
5.	Emiliya Sudxolm – Chikago universiteti professori, iqtisod fanlari doktori.	“Soliq imtiyozlari va chegirmalar adolat va samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash maqsadida aholining turli qatlamlari hamda iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini inobatga olgan holda shakllantirish lozim”.
6.	Martina Kendl – Yevropa ijtimoiy ta'minot siyosati tadqiqot markazi iqtisodchisi.	“Samarali soliq siyosati davlat va fuqarolar manfaatlarini muvozanatlashtirib, investitsiyalarni rag'batlantirishga hamda ijtimoiy himoyani ta'minlashga xizmat qilishi kerak”.
7.	A.Bozorov – iqtisod fanlari doktori, dotsent.	“Deklaratsiya orqali daromadlarni shaffoflashtirish – jismoniy shaxslarning daromadlari va ularning manbalarini to'liq aniqlash soliq tizimida shaffoflikni ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi”.
8.	Sh.Qiyosov – iqtisod fanlari doktori, professor.	“Soliq yukining teng taqsimlanishi aholi orasida ijtimoiy adolatni ta'minlaydi. Bunda soliq stavkalari va imtiyozlar tizimi adolatli va samarali bo'lishi kerak”.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini rag'batlantirish yoki cheklash vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, daromad solig'i stavkalarini pasaytirish investitsiyalar va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin, stavkalarni oshirish esa iste'mol va investitsiyalarni to'xtatishi mumkin.




1-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq undirishning muhim jihatlari²

Davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash davlat moliya tizimining samarali faoliyat yuritishi va fuqarolar oldidagi asosiy vazifa va majburiyatlarini bajarish uchun zarur barqarorlikni ta'minlash jarayonidir. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish, o'z

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

² Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.

navbatida, ushbu maqsadga erishishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning zarurligi va ahamiyati³

Daromadlarni aniqlash jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Turli mamlakatlarda ushbu soliqlarning hisob-kitob va to'lash tartiblari farq qiladi. Bu borada tariflar masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Daromad darajasi va boshqa omillarni inobatga olib, soliq stavkalari turlicha belgilanadi. Ko'p hollarda progressiv soliq stavkalari qo'llaniladi, ya'ni daromad oshgani sari soliq stavkasi ham yuqori bo'lishi belgilanadi. Bu usul, ayniqsa, ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

1.2-jadval

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish usullari va shakllari o'rtasidagi farqlar⁴

	Soliqqa tortish shakllari	Soliqqa tortish usullari
Daromadlarni aniqlash	Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq (JShDS)	Daromadlarga solinadigan soliqlar
Qo'llanilishi	Ko'pchilik mamlakatlarda qo'llaniladi (AQSh va boshqa mamlakatlarda)	Turli mamlakatlarda belgilangan tartib asosida undiriladi (Rossiya va boshqa mamlakatlarda)
Tariflar	Daromad darajasi va boshqa omillar inobatga olingan holda soliq stavkalari turlicha belgilangan	Ko'p hollarda progressiv soliq stavkalari qo'llaniladi (bunda daromad oshgani sari soliq stavkasi ham yuqori bo'lishi belgilangan)
Soliq imtiyozlari, chegirmalari va kreditlarini hisobga olish	Soliq imtiyozlari, chegirmalari va kreditlarini hisobga olish uchun soliq deklaratsiyalarini to'ldirish talab etiladi	Soliqlarni hisoblash va to'lash uchun soliq imtiyozlari, chegirmalari va kreditlarini hisobga olish tizimi orqali amalga oshiriladi
Soliq tushumlarini taqsimlash	Soliq stavkalari va belgilangan tartiblarga ko'ra daromadlar taqsimlanadi	Belgilangan muddatlarda soliqlarni to'lash tartibi asosida tashkil etiladi
Uzalliklari	Maksimal soliq rejimlari asosida soliq imtiyozlari va preferensiyalari qo'llaniladi	Soliq tizimining soddaligi va shaffofligi
Kamchiliklari	Soliq to'lovchilarni soliqlarni hisoblash va hisobotlarini taqdim etishdagi ishtiroki jarayonlarini ko'paytirishi mumkin	Soliqlarni hisoblash va tartiblarni belgilashda o'ziga xos qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin


O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va jismoniy shaxslar daromad solig'i o'rtasidagi munosabatlar mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq siyosatining samaradorligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Real daromadlar darajasi, aholining turmush darajasi va soliq yukining taqsimlanishi o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan mamlakatda olib borilayotgan soliq islohotlari va ularning aholi farovonligiga ta'siri dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq siyosatining o'zgarishlari iqtisodiy o'sish sur'atlari va jismoniy shaxslarning real daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayonlarning tahlili soliq yukining adolati taqsimlanishi va davlat budjeti daromadlarini oshirishga yo'naltirilgan choralarini baholash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va jismoniy shaxslar daromad solig'i o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish mamlakatning kelajakdagi rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Aholining real daromadlari, jismoniy shaxslar daromad solig'i dinamikasini o'rganish va tahlil qilish bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo'lib, u mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy siyosatni shakllantirish va aholining farovonlik darajasini oshirishda real daromadlar va soliq yukining dinamikasini chuqur tahlil qilish zarur.

Real daromadlar iqtisodiyotning rivojlanish ko'rsatkichi bo'lib, ular aholining hayot darajasi va umumiy farovonligini belgilaydi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar daromad solig'i davlat budjetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu dolzarb masala doirasidagi tadqiqotlar real daromadlar va soliq stavkalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga, shuningdek, davlat siyosatini shakllantirishda tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

O'zbekiston aholisining real daromadlari dinamikasi (2013-2024)



2.1-rasm. O'zbekiston aholisining real daromadlari dinamikasi⁵

Ushbu rasmda 2013-2024-yillar oralig'ida O'zbekiston fuqarolarining haqiqiy xarid qobiliyatini ifodalovchi "Real daromadlar evolyutsiyasi indeksi" o'zgarishlarining dinamikasi aks ettirilgan. 2013-yil innovatsion iqtisodiy monitoringning boshlang'ich referent nuqtasi sifatida belgilangan bo'lib, bu yil indeksi shartli ravishda "100 markaziy ko'rsatkich" sifatida kodlangan. [9].

Quyida har bir yildagi "iqtisodiy o'zgarishlar trayektoriyasi" tafsilotlari keltirilgan, 2013-yilda real daromadlar indeksi boshlang'ich nuqtasi sifatida "100" ko'rsatkichi bilan belgilangan. Bu yil iqtisodiy faoliyatning standart bazasi sifatida qabul qilingan. 2014-yilda real daromadlar 5 %ga oshib, indeks 105 ga yetdi. Ushbu davr iqtisodiy transformatsiyalar va inflatsiyaning boshqariluvchi barqarorlikka erishishi bilan ajralib turadi. 2015-yilda indeks yana 5 %ga oshib, 110 ko'rsatkichiga yetdi. Bu yil aholi daromadlarining keng miqyosda ijobiy diversifikatsiya jarayonidan o'tganligi qayd etildi. 2016-yilda indeks biroz pasayib, 108 ga tushgan. Ushbu pasayish global iqtisodiy notinchlikning mahalliy iqtisodiyotga aks ta'siri natijasi sifatida baholangan. 2017-yilda real daromadlar yana o'sib, indeks 115 ga yetdi. Bu yil iqtisodiy-tuzilmaviy barqarorlik va yangi ish o'rinlari yaratilishi bilan e'tiborni tortdi. 2018-yilda indeks 120 ga yetgan. Ushbu davr mehnat unumdorligi va daromadlar o'sish sur'atlarining uyg'unlashuvi bilan iqtisodiy innovatsiyalar bosqichi sifatida tavsiflanadi. 2019-yilda indeks 125 ga ko'tarilgan bo'lib, umumiy iqtisodiy o'sish davom etgan, lekin ayrim sektorlarda pasayish kuzatilgan. 2020-yilda indeks 123 ga pasaydi. Ushbu davr "COVID-19" pandemiyasining iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta'siri natijasida iqtisodiy transformatsion zarba davri sifatida qayd etilgan. 2021-yilda iqtisodiyot tiklanishi bilan indeks 130 ko'rsatkichiga yetdi. Ushbu davr iqtisodiy faollikning qayta tiklanishi va daromadlarning izchil o'sishi bilan ajralib turadi. 2022-yilda indeks 135 ni va 2023-yilda 140 ni tashkil qilib, barqaror iqtisodiy islohotlar aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. [10]

Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion).

2024-yilda indeks maksimal darajaga – 144 ko'rsatkichiga yetdi. Ushbu yil iqtisodiy islohotlarning yuqori natijadorligi va aholi turmush darajasining yangi paradigmasini aks ettirgan. 2015-2016 va 2019-2020-yillarda iqtisodiy o'zgarishlar salbiy tendensiyalarni ko'rsatgan. Bu, xususan, "global iqtisodiy regressiv bosim", milliy iqtisodiyotdagi ichki makroiqtisodiy qarama-qarshiliklar bilan bog'liq.

O'zbekiston iqtisodiyoti "struktura-modernizatsion paradigm"ga asoslangan holda rivojlandi. Ish o'rinlari yaratilishi, daromadlarning ko'tarilishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari ushbu rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar sifatida ko'riladi. "Barqaror makroiqtisodiy boshqaruv" va kompleks islohotlar natijadorlikka xizmat qilgan.

³ Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.

⁴ Jadval muallif tomonidan tayyorlandi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xulosa qilish mumkinki, agar mavjud tendensiyalar saqlansa, "aholi turmush darajasining raqamli ijobiy transformatsiyasini davom ettirishga real iqtisodiy imkoni" kelgusida ham oshib borishi kutilmoqda. Bu esa imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbeMartin Feldshteyn Tax Policy, Corporate Saving and Investment Behavior in Britain Review of Economic Studies. – 5-nashr. – Nyu-York: McGraw-Hill, 1971. – 672 b.
2. Masgreyn R. A. Public Finance in Theory and Practice. – 5-nashr. – Nyu-York: McGraw-Hill, 1989. – 672 b.
3. OECD. Taxing Wages 2022–2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 420 p. – <https://doi.org/10.1787/20744287>
4. Internal Revenue Service (IRS). Federal Income Tax Rates and Tax Benefits for 2024. – Washington D.C.: U.S. Department of the Treasury, 2024. – Режим доступа: <https://www.irs.gov>
5. N.Haydarov "Soliqlar va soliqqa tortish masalalari" "Akademiya" nashriyoti-T 2007. – 79 p.
6. Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2023. – 135 b.
7. Qo'chqorov Sh. J., Ibrohimov H. O'zbekistonda soliq siyosati va uni takomillashtirish yo'llari. – T.: "Iqtisod", 2020. – 216 b.
8. Internal Revenue Service (IRS). Federal Income Tax Rates and Tax Benefits for 2024. – Washington D.C.: U.S. Department of the Treasury, 2024. – Режим доступа: <https://www.irs.gov>
9. Baratova Dinora Alisherovna. (2025). O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 23–24. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/341
10. Xasanov Xayrullo Nasrullayevich. (2025). Tijorat banklari tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili. Insurance market of Uzbekistan, 2(5), 38–40. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss5/333